

2018 yil yanvar-aprel

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-aprel oylarida 384,8 mln. AQSh dollarni, shu jumladan eksport 86,9 mln. AQSh dollarni va import 297,9 mln. AQSh dollarni tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi -211,0 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 69,7 foizga, qora va rangli metallar eksporti 3,8 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 34,8 mln. AQSh dollarni tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 78,9 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-aprel oylarida 287,2 mln. AQSh dollarni, shu jumladan eksport 62,7 mln. AQSh dollarni va import 224,5 mln. AQSh dollarni tashkil qildi.

Eksport tarkibi, foizda



Import tarkibi, foizda






Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 38,0 foizini mashina va asbob-uskunalar, 26,3 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 9,2 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 51,2 foizni va safarlar 20,0 foizni tashkil etdi.



Importda eng katta ulushni, ya'ni 38,0 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 6,6 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (50,8 foiz) eksport hajmining yarmini tashkil etdi.




2018 yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi –211,0 mln. AQSh dollarni tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan –47,3 mln. AQSh dollarni va boshqa davlatlar bilan –163,7 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-aprelida viloyatning tashqi savdo aylanmasi
quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**


	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiylajmaga nisbatan, %</i>
Eksport	86,9	120,2	100
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	44,2	107,7	50,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	1,6	99,2	1,8
qora va rangli metallar	6,0	3,8m	6,9
mashina va asbob-uskunalar	5,7	169,7	6,6
xizmatlar	8,0	116,2	9,2
boshqalar	21,4	121,0	24,7
Import	297,9	133,9	100
oziq-ovqat mahsulotlari	49,7	169,5	16,7
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	78,5	122,6	26,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,6	49,4	0,2
qora va rangli metallar	27,3	4,1m	9,2
mashina va asbob-uskunalar	113,2	116,5	38,0
xizmatlar	0,5	45,4	0,2
boshqalar	28,2	121,6	9,4

2018 yil yanvar-aprel oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 35,7 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 64,3 foizni tashkil qildi.



Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar. (foizda)



Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 34,8 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,1 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 43,7 foizni sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 127,6 foizni tashkil qildi), 20,5 foizni mevalar (108,3 foizni), 31,6 foizni uzum (117,4 foizni) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiyligi hajmidan 45,0 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (103,8 foizni) tashkil qildi.



Eksport hajmida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiyligi hajmdan 15,0 foiz), Rossiya (14,3 foiz), Vietnam (9,6 foiz), Xitoy (7,3 foiz), Turkiya (13,4 foiz), Belarusiya (5,9 foiz) va Eron (4,8 foiz) hisoblanadi.

Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda

